Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 94
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

NAJMIDDIN MUXTOR ZOHIDIY HAQIDAGI BIO-BIBLIOGRAFIK MA'LUMOTLAR TAHLILI

Karamatdin Najimatdinov*
Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti
✉ talibiilim454@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Najmiddin Zohidiy tarjimai holi tabaqot va tarojim manbalarida aks etishi qiyosiy tahlil qilingan. Olimning nasl-nasabi, ilmiy faoliyati, ustozlari, asarlari va diniy qarashlari haqidagi ma'lumotlar arab tilidagi tabaqot, tarojim va bibliografik manbalar asosida tadqiq etilgan. Natijada manbalarda keltirilgan ma'lumotlarning umumiy va farqli jihatlari aniqlangan hamda Najmiddin Zohidiy haqidagi tarixiy ma'lumotlar tizimlashtirilgan.

Kalit so'zlar

Najmiddin Zohidiy, tabaqot, tarojim, Qunyatul munya, fiqh, hanafiylik, Xorazm, manbashunoslik.

DOI: 10.5281/zenodo.21743181

KIRISH

Markaziy Osiyo o'rta asrlar ilmiy muhitida hanafiy fiqh maktabining rivojlanishida muhim o'rin tutgan allomalardan biri Najmiddin Zohidiy hisoblanadi. U fiqh, usul, aqida va faroiz ilmlariga oid qator asarlar muallifi bo'lib, uning ilmiy merosi asrlar davomida Movarounnahr, Xorazm va boshqa musulmon mamlakatlari madrasalarida keng foydalanilgan. Biroq allomaning hayoti va ilmiy faoliyati haqidagi ma'lumotlar yagona manbada emas, balki turli tabaqot, tarojim va bio-bibliografik asarlarda tarqoq holda saqlanib qolgan. Mazkur manbalarni qiyosiy tahlil qilish Zohidiyning ilmiy qiyofasini tiklash, uning ilmiy merosini xolis baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Najmiddin Zohidiy haqidagi bio-bibliografik ma'lumotlarni tabaqot va tarojim manbalari asosida qiyosiy tahlil qilish, ular orasidagi umumiy va tafovutli jihatlarni aniqlash hamda tarixiy ishonchliligini baholashdan iborat.

Tadqiqot davomida Abdulhay Laknaviyning "Favoidul bahiyya", Abul Vafo Qurashiyning "Al-javohirul muziyya", Toshko'pirzodaning "Tabaqotul fuqaho", Hoji Xalifaning "Kashfuz zunun", Mulla Ali Qorining "Asmarul janiyya", Humaydiyning "Tabaqotul hanafiyya", Ismoil Posho Bag'dodiyning "Hadiyatul orifiyn" hamda boshqa bio-bibliografik manbalar qiyosiy o'rganildi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik va matnlararo tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlillar natijasida manbalarning deyarli barchasida allomaning to'liq ismi Muxtor ibn Mahmud ibn Muhammad Abu Rajo Najmiddin Zohidiy al-G'azminiy al-Xorazmiy shaklida qayd etilishi aniqlandi. Ayrim manbalarda uchraydigan "Arminiy" [1] yoki nasabdagi tafovutlar [2] qo'lyozma nusxalaridagi xatolar hamda yozilish an'analari bilan bog'liq ekani kuzatildi [3]. Shuningdek, "Najmiddin" laqab, "Zohidiy" esa ilmiy taxallus ekani ayrim manbalar orqali tasdiqlandi [4].

Manbalarning aksariyatida Zohidiy hanafiy fiqhining yirik namoyandasi sifatida e'tirof etilib, uning Alouddin Xayyotiy, Burhonul aimma Muhammad Turkistoniy, Yusuf Sakkokiy va Nosiriddin Mutarriziy kabi mashhur ulamolardan ta'lim olgani qayd etiladi. Turk tadqiqotchisi Shukru O'zen tomonidan keltirilgan

ma’lumotlar esa allomaning ilmiy aloqalari bundan ham kengroq bo‘lganini ko‘rsatadi [5].

Bio-bibliografik manbalarda Zohidiyning fiqh va usul ilmlariga oid ko‘plab asarlari zikr etilgan. Ular orasida “Qunyatul munya” eng mashhur asar bo‘lib, ko‘pgina mualliflar uni hanafiy fiqhining muhim manbalaridan biri sifatida baholaydilar. Bundan tashqari, “Sharhu Muxtasarul Quduriy”, “Risolatun Nosiriyya”, “Kitobul faroiz”, “Zodul aimma” va boshqa asarlar ham muntazam tilga olinadi. Ayrim bibliografik manbalarda esa qo‘shimcha asarlar ham Zohidiy nomi bilan bog‘langan [6].

Tadqiqot davomida eng munozarali masalalardan biri allomaning e’tiqodiy qarashlari bilan bog‘liqligi aniqlandi. Ba’zi mualliflar uni mu’taziliy qarashlarga moyil deb ko‘rsatgan [4, 7].

Xuddi shuningdek, Zohidiyning Bag‘dod va Rumga qilgan ilmiy safarlari ayrim manbalarda uchrasada, boshqa manbalarda qayd etilmagan [1, 3]. Biroq hijriy 658 (milodiy 1260) yilda vafot etgani deyarli barcha manbalarda bir xil ko‘rsatiladi.

Qiyosiy tahlil natijasida Najmiddin Zohidiy haqidagi ma’lumotlarni uch guruhga ajratish mumkinligi aniqlandi: barcha manbalarda bir xil uchraydigan ma’lumotlar, ayrim tafsilotlarda farqlanuvchi ma’lumotlar hamda ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo‘layotgan ma’lumotlar. Bu tafovutlar asosan manbalarning yozilish davri, mualliflarning ilmiy qarashlari va qo‘lyozma nusxalaridagi farqlar bilan izohlanadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari Najmiddin Zohidiy Markaziy Osiyo hanafiy ilmiy muhitining yirik namoyandalaridan biri bo‘lganini yana bir bor tasdiqlaydi. Tabaqot va tarojim manbalarining qiyosiy tahlili allomaning tarjimai holi, ilmiy faoliyati va merosiga oid ma’lumotlarni tizimlashtirish imkonini berdi.

Shuningdek, manbalardagi tafovutlarning sabablari aniqlanib, ularning tarixiy va manbashunoslik jihatdan bahosi berildi. Mazkur tadqiqot natijalari Najmiddin Zohidiy ilmiy merosini yanada chuqurroq o‘rganish, uning asarlarini tanqidiy nashrga tayyorlash hamda Markaziy Osiyoda hanafiylik tarixini tadqiq etishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abul Vafo Qurashiy. Al-javohirul muziyya fiy tabaqotil hanafiyya (3-juz). - Ar-Riyod: Hijr nashriyoti, 1993. - B. 460.
2. Mulla Ali Qori. Al-asmarul janiyya fiy asmoil hanafiya. Haydarobod, 2002. - B. 310.
3. Abdulhay Laknaviy. Favoidul bahiyya. - Bayrut: Dorul arqom, 1998. - B. 349.
4. Toshko‘pirzoda. Tabaqotul fuqaho. - Mosul: Matbaat-uz zahro, 1961. - B. 115.
5. O‘zen Shukru. ”ez-Zahidi” Türkiye Diyanet Vakfı İslam Ansiklopedisi (44-jild). - Istanbul: TDV nashrlari, 2013. - B. 81-82.
6. Ismoil Posho al-Bag‘dodiy. Hadiyat-ul orifin (2-juz). - Istanbul: Maktabatul Islomiya, 1951. - B. 423.
7. Hoji Xalifa. Kashfuz zunun an-asomil kutub val funun (2-juz). - Bayrut: Daru ihyout turosil arobiy, 1939. - B. 209.